

## FARG'ONA SHAHRI FLORASIDAGI LIPA O'SIMLIGI TURLARINING CHANGLANISHI VA GULLASHI

O'rinboyev Ilxomjon Ravshanovich

*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*

Umurzakova Farangiz Baxtiyarovna

*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

Lipaning generativ organi bir yillik ildizlarining barg qo'ltilqlarida hosil bo'ladi. Uning gul novdasi chala soyobon to'pgullar jumlasiga kiradi. Ularda to'plarning asosiy o'qi rivojlangan va gullarining soni aniq bo'ladi, shuning uchun chala soyobon to'pgullilar deyiladi. To'pguli bandining asosidan pardasimon yonbarg o'sib chiqadi. Bu gulyonbarg mevasini tarqalishi uchun xizmat qiladi. Kuzatishlarimiz natijasida soyabonning uzunligi 2-2,5 sm, gulkosachasining uzunligi 2-3 mm, g'unnachisining uzunligi 12-14 mm, gul novdasining uzunligi 3- mm gacha bo'ladi. Lipa gulini ochilish mexanizimi gullahidan 5-6 kun oldin yani tojibarglar kosacha bargidan yuqorida joylashgan davrda o'rganildi. Kuzatishlarimiz natijalariga ko'ra ko'p hollarda ertalabki soatlarda (soat 5-6) tugunchadagi tojbarglarning uchki qismi yorila boshlaydi. Changchilar yetilmagan bo'ladi va tumshuqchadan pastroqda joylashadi. Changdonlar asta-sekin rivojlanib chang chiqadi va vertikal bo'lib yuqorida joylashadi. Bu davrda tumshuqcha yetilmagan bo'lib, changdonlardan pastroqda joylashadi. Havo haroratiga bog'liq holda changdonlar 1-3 soatda yetiladi, yuqoriga qarab qayriladi va yorila boshlaydi. Changdonlarning tashqi qavati uzinasiga yoriladi, gul markaziga nisbatan yoniga qayriladi. Changlar to'q-sariq rangli bo'lib yetilgandan keyin tojibargga to'kila boshlaydi.

Turlar Changdon miqdori

T. tomentosa 53-56

T. Americana 69-73

T. mandshurica 45-60

T. caucasica 39-42

T. japonica 38-42

T. sibirica 25-30

T. europaea 37-41

T. amurensis 20-35

Changdon ipi oq rangda, ochiq chang tutadi. Yetuk gullarda changdon iplari to'g'ri, g'uncha va yosh gullarda egik, shakli S va Y harflariga o'xshaydi. *Tilia tomentosa* gullari 5 ta gultojbargsimon staminodlarga ega. Staminodlar kuraksimon, pastki qismi torayib boruvchi, yorqin-sariq, o'rta qismida asosga tomon kengaygan urug'chi bitta. Tuguncha yuqoriga, 3 ko'pincha 5 uyali dumaloq har doim quyuq tukli bo'ladi. Ustuncha ochiq yoki asosi tukli. Tumshuqcha oq 5 tomonlama panjalar bir-biriga zinch

birikkan yoki tarqoq. Changdon yirik, tashqi somoni tukli bo'lib, hashoratlar yordamida boshqa gulga o'tish imkonini beradi.

Lipa changdonlari morfologiyasi Z. G. Gubonika (1952) tomonidan o'rganilgan.

Tur Changdon diametri

(mk) Changdon shakli

T. tomentosa 41-44 Yumaloq

T. caucasica 42-48 Yumaloq-

uchburchaksimon

T. mandshurica 41,5-45 Yumaloq

T. amurensis 40-45,8 Uchburchaksimon

T. platyphyllus 33-45 Yumaloq-oltiburchakli

T. sibirica 35-42 Yumaloq-uchburchakli

Ob-havoga bog'liq holda gul 5-6 kun ochilib turadi. Bitta daraxtdagi to'pgullar pastdan yuqoriga qarab ochilib boradi. gullarning ochilib borishi daraxtning pastki qismidan boshlanadi. Gullarning gullab turish muddati ulardagi gullar soniga bog'liq. Gullari ko'proq bo'lган shoxchada (20-25 dona to'pgul) to'pgullar uzoqroq gullashi (10-11 kun), gullari kam bo'lган shoxchada (10-12 dona to'pgul) to'pgullar qisqaroq muddatda gullaydi. Ikkala holatda ham gullarning ochilib borishi akropetal tipda boradi. Birinchi kuni havo harorati past bo'lган sharoitda (9-10° C) bitta shoxchada 3-7 ta to'pgul ochiladi. Havo harorati ko'tarila boshlashi (20-25° C) bilan gullarning ochilishi ko'payadi. Bir to'pguldagi gullar bir xilda ochilib boradi. Bir dona gul 6-8 kun ochilib tursa, shoxchadagi to'pgullar soni 300-400 gacha bo'lib bular 10-12 kun davomida gullaydi. Gullarning ochilishi yuqoriga qayrilgan sari birinchi tartibli g'unchalarning ochilishi bilan pastdagi ikkinchi tartibli g'unchalalar ham ular bilan bilan bir vaqtda ochila boshlaydi. O'simlik yalpi gullagan davrda bir vaqtning o'zida bir qancha gullar ochiladi. Gullashning oxirida g'unchalarning ochilishi tezlashadi, bir kunda o'nlab to'pgullar ochilishi mumkin ba'zan havo haroratiga bog'liq holda gullash oxirida g'unchalarning ochilishi sekinlashadi. Shu bilan birga dastlabki gullar meva hosil qiladi. Yalpi mevalash davri 10-15 kun davom etib, o'simlik gullaganda 20-25 kun o'tgach mevalari urug'lari to'liq yetiladi. Bu vaqtda o'simlik boshqa o'simliklardan farqli o'laroq, potensial urug' maxsuldarligi va real urug' maxsuldarligi o'rtasidagi farq unchalik katta emas. Bir tup o'simlikda birinchi yili o'rtacha 40-45% g'uncha shakllansa, shulardan 40-41% da gul ochiladi va 30-35% meva hosil bo'ladi.

Kuzatishlar natijasida shunday xulosaga kelindiki, Farg'ona iqlimi sharoitida o'stirilgan lipa o'simligi bahor oylarida sekin o'sadi. Mart, iyun oylarida bir vaqtda, bir tupning o'zida barcha fazalar (g'unchalash, gullah, urug'lash, urug' pishishi) ni kuzatish mumkin. Bu o'simlik bahorgi, yozgi o'simlik hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Губанов И. А. 893. *Tilia cordata* Mill. — Липа сердцевидная, или мелколистная // Иллюстрированный определитель растений Средней России : в 3 т. / И. А. Губанов, К. В. Киселёва, В. С. Новиков, В. Н. Тихомиров. — М. : Товарищество науч. изд. КМК : Ин-т технол. исслед., 2003. — Т. 2 : Покрытосеменные (двудольные: раздельнолепестные). — С. 548. — 666 с. — 3000 экз. — ISBN 9-87317-128-9.( Gubanov I. A. 893. *Tilia cordata* Mill. - Linden heart-shaped, or small-leaved // Illustrated guide to plants of Central Russia: in 3 volumes / I. A. Gubanov, K. V. Kiseleva, V. S. Novikov, V. N. Tikhomirov. - M .: Partnership scientific. ed. KMK: Institute of Technol. issled., 2003. - V. 2: Angiosperms (dicotyledonous: separate-petal). - S. 548. - 666 p. - 3000 copies. — ISBN 9-87317-128-9.)

2. Дудченко Л. Г., Козьяков А. С., Кривенко В. В. Пряно-ароматические и пряно-вкусовые растения: Справочник / Отв. ред. К. М. Сытник. — К.: Наукова думка, 1989. — 304 с. — 100 000 экз. — ISBN 5-12-000483-0.

(Dudchenko L. G., Koziakov A. S., Krivenko V. V. Spicy-aromatic and spicy-flavoring plants: a Handbook / Ed. ed. K. M. Sytnik. - K .: Naukova Dumka, 1989. - 304 p. — 100,000 copies. — ISBN 5-12-000483-0.)

3. Мадебейкин И. Н., Мадебейкин И. И. Выращивание и использование липы // Пчеловодство : журнал. ( Madebeykin I. N., Madebeykin I. I. Cultivation and use of linden // Beekeeping: journal.)

4. Бурмистров А. Н., Никитина В. А. Медоносные растения и их пыльца: Справочник. — М.: Росагропромиздат, 1990. — С. 103. — 192 с. — ISBN 5-260-00145-1(Burmistrov A.N., Nikitina V.A. Honey plants and their pollen: a Handbook. - M.: Rosagropromizdat, 1990. - S. 103. - 192 p. — ISBN 5-260-00145-1.)

5. Мадебейкин И. И., Мадебейкин И. Н. Липы разных видов // Пчеловодство : журнал. — 1999. — № 5. — С. 22—23.( Madebeykin I. I., Madebeykin I. N. Limes of different types // Beekeeping: journal. - 1999. - No. 5. - S. 22-23.)